

HOZIRGI KUNDA OLIY TA'LIM SOHASIDAGI NEOLOGIZMLAR

Shaniyazov Jenisbay Ungarbaevich,*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali**O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*shaniyazovjenisbay@gmail.comDOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18476936>

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kundagi oliy ta'lim sohasiga yangidan kirib kelayotgan so'zlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Qoraqalpoq tili turkiy tillar oilasining qipchoq-nog'ay bo'limiga kirishi sababli, tilimizda uzoq davrlardan beri qo'llanib kelinayotgan o'z qatlamimiz va turkiy-mo'g'ul tillariga o'rtog' bo'lgan so'zlarimiz ma'lum bir lug'aviy qatlamni tashkil etadi. Bu haqda N.A.Baskakov turkiy tillar leksikasining eski qatlami ko'p sonli turkiy va mo'g'ul tillari uchun umumiy leksik qatlam ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Kalit so'zlar: leksika, o'z lug'aviy qatlami, turkiy-mo'g'ul so'zlari, arab-fors so'zlari, rus so'zlari, rus tili orqali o'zlashgan so'zlar qatlami.

Аннотация. Эта статья посвящена анализу новых терминов, входящих в сферу высшего образования сегодня. Поскольку каракалпакский язык принадлежит к кыпчакско-ногайской части тюркской языковой семьи, словарный состав, используемый в нашем языке с давних времен, и слова, общие для тюрко-монгольских языков, составляют определенный словарный пласт. Об этом Н.А. Баскаков указывает, что древний пласт лексики тюркских языков является общим лексическим пластом для многочисленных тюркских и монгольских языков.

Ключевые слова: лексика, слой собственного словаря, тюрко-монгольские слова, арабо-персидские слова, русские слова, слой заимствованных слов через русский язык.

Abstract. This article is dedicated to analyzing newly emerging concepts in the field of higher education. Since the Karakalpak language belongs to the Kipchak-Nogai branch of the Turkic language family, its own vocabulary, which has been used in our language for a long time, and the words common to the Turkic-Mongol languages form a certain vocabulary layer. Baskakov indicates that the old layer of the lexicon of Turkic languages is a common lexical layer for the numerous Turkic and Mongolian languages.

Keywords: lexicon, native vocabulary layer, Turkic-Mongolian words, Arabic-Persian words, Russian words, layer of words borrowed through the Russian language.

Kirish. Tilshunoslikning leksika sohasi doimiy ravishda o'zgarib turadigan sohadir. Tilimizning o'z ichida mavjud bo'lgan so'zlarga qo'shimchalar qo'shilishi va so'zga so'z qo'shilishi orqali, shuningdek, chetdan so'zlarning kirib kelishi bilan boyib, rivojlanib boradi. «Biz davlat tilining rivojlanishini dunyodagi yetakchi chet tillar va mamlakatimizdagi turli millat vakillarining tili hamda madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq holda ko'ramiz».(1) Chunki har bir millatning tili qadrlanadi, hozir O'zbekistonda o'qish yetti tilda, Qoraqalpog'istonda besh tilda olib boriladi. Chet tillarni o'rganishga ham keng imkoniyatlar yaratilgan.

Tariximizga nazar tashlasak, tilimizda har bir davr o'zining izini qoldirib ketganining guvohi bo'lamiz. Qoraqalpoq tili turkiy tillar oilasining qipchoq-no'g'ay bo'limiga kirishi sababli, tilimizda uzoq davrlardan beri qo'llanilib kelayotgan o'z lug'aviy qatlamimiz va turkiy-mo'g'ul tillariga o'rtog' bo'lgan so'zlarimiz ma'lum bir lug'aviy qatlamni tashkil

etadi. Bu haqda N.A.Baskakov turkiy tillar leksikasining eski qatlami ko‘p sonli turkiy va mo‘g‘ul tillari uchun umumiy leksik qatlam ekanligini ko‘rsatadi. Ularning mo‘g‘ulcha va qoraqalpoqcha turlari solishtiriladi hamda ma‘nolari ruscha muqobillari bilan tushuntiriladi. [2.5] Masalan: bas (bosh), kóz (ko‘z), kún (kun), taw (tog‘), jer (er), suw (suv), ága (aka), ań (ov), júrek (yurak), jemis (meva), mańlay (peshona), mańgi (mangu), bosága (ostona) va h.k.

VII asrlarda O‘rta Osiyoni arablar tomonidan zabt etilishi va islom dinining keng yoyilishi natijasida tilimizga arab so‘zlari kirib keldi va tilimizning fonetik qonuniyatlariga bo‘ysundirilib, o‘z so‘zimizdek singib ketdi. «Arab tilidan so‘zlar og‘zaki va yozma turda qo‘shni xalqlar tillari orqali, shuningdek, bevosita o‘zlashdi. Ular lug‘at boyligidan o‘rin oldi». [2.69] Masalan: medirese (madrasa), ilim (ilm), hárip (harf), qımbat (qimmat), raxmet (rahmat), watan (vatan), amanat (omonat), xızmet (xizmat), májilis (majlis), ásker (askar), qarar (qaror), samal (shamol) va h.k.

IX-X asrlarga kelib fors tili davlat tili darajasiga ko‘tarilishi sababli hozirgi kunda tilimizda fors so‘zlari ko‘plab uchraydi. Shuningdek, N.A.Baskakov bu haqda shunday deydi: «Qoraqalpoq tili leksikasini baholashda qoraqalpoq tilining to‘liq ma‘noda hozirgi yashab turgan hududida – Orol bo‘yida birga yashagan turkiy va eron qabilalari tillarining bir-biriga yaqin ta‘siri natijasida shakllanganini hisobga olish kerak». [3] Masalan: dárt (dart), abadan (obod), gúlistan (guliston), dástan (doston), miywe (meva), taxta (taxta), bálent (baland), tut (tut), qaǵaz (qog‘oz), marjan (marjon), kárwan (karvon), saray (saroy), kepkir (kapkir), shira (chiroq).

Metodlar. XIX asrda Rossiya tarkibiga o‘tilishi sababli rus tili so‘zlari kirib kela boshladi. Bu davrdagi so‘zlarning ko‘pchiligi mahalliy xalqning til qoidalariga moslashtirilib aytilgan. Masalan: Abiroy aqsaqal bolǵanıń, Bolıs bolǵanda, adam jer ediń. [4] Bu erda «volost» so‘zi — «boлыs» bo‘lib o‘zlashtirilgan.

Rus tili orqali grek, lotin, ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, polyak tillaridan so‘zlar kirib keldi va tilimizga singib, faol qo‘llaniladigan so‘zlar qatoridan o‘rin oldi. Masalan: avtovokzal, tomat, janr, balkon, triko, kabinet, mebel, bufet, balans, palto, bank, marshrut, kredit, benzin, limon, karamel, byujet, raketa, tort, futbol va h.k. Agar XIX asrda kirib kelgan so‘zlar tilimizning fonetik qonunlariga bo‘ysundirilgan bo‘lsa, bugungi kunda kirib kelayotgan so‘zlar o‘sha tilda qanday aytilsa va yozilsa, shundayligicha qabul qilinmoqda.

Jamiyatimiz rivojlanishi bilan tilimizga har bir sohaga oid so‘zlar kirib kelishi tabiiy. Ilm-fan, texnika, iqtisodiyot, san‘at va madaniyat, tibbiyot va boshqa sohalar rivoji bilan yangi mehnat qurollari, uy buyumlari, mashinalar va turli asboblarda paydo bo‘ladi. Har bir davrdagi o‘zgarishlar tilimizda aks etib, yangi buyumlar bilan birga ularning nomini bildiruvchi yangi so‘zlar leksikamizni to‘ldirib boradi. Tilda yangi paydo bo‘lgan so‘zlar neologizmlar deb ataladi. Neologizm — grekcha: “neo”– yangi, “logos”– so‘z, ya‘ni

“yangi so‘z” degan ma‘noni bildiradi. [5] Bularning ichidan faqat oliy ta‘lim sohasiga oid so‘zlarga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Test (inglizcha test – sinov, tekshirish) – respondentlarning bilimi yoki boshqa qobiliyatlarini o‘lchash uchun mo‘ljallangan ta‘lim bahosi. Test tushunchasi mamlakatimizga 1996-yildan boshlab keng kirib keldi. Hozirgi vaqtda eng ko‘lamli test – o‘qishga qabul qilish uchun o‘tkaziladigan testlar hisoblanadi. Ular Davlat test markazi (DTM) tomonidan tuziladi.

Motivatsiya (lotincha *movēre* – harakatga keltirish) – harakatga sabab; inson xulq-atvorini boshqaruvchi psixofiziologik jarayon. Ms: Gulzada o‘ziga motivatsiya beruvchi kitob izlab kutubxonaga bordi.

Natijalar. Reyting (ingl. rating) – o‘quvchi va talabalar bilimini nazorat qilish va baholash usuli. O‘zbekistonda uzluksiz ta‘lim tizimining normativ hujjati sifatida qabul qilingan.

Tyutor (lotincha *tutorem* – ustoz, tarbiyachi) – mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni yetkazish maqsadida talaba bilan doimiy shug‘ullanuvchi o‘qituvchi.

Kredit-modul tizimi – ta‘limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari va kredit o‘lchovi asosida baholash modelidir. Ushbu tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va shaxs sifatida kamol topishiga yo‘naltirilgan.

HEMIS (Higher Education Management Information System) – O‘zbekistonda oliy ta‘lim sohasi uchun yaratilgan yagona axborot tizimi bo‘lib, u o‘quv jarayonlarini, ma‘muriy, ilmiy va moliyaviy boshqaruvni raqamlashtiradi.

Onlayn (ingl. online – tarmoqda) – axborot tizimiga yoki Internetga ulangan holat. COVID-19 pandemiyasi sababli ta‘lim tizimi ushbu shaklga o‘tdi.

Zoom – videokonferensiyalar o‘tkazish imkonini beruvchi dastur. 2020-yildan boshlab undan foydalanish global darajada oshdi.

IT – inglizcha Information Technology so‘zining qisqartmasi bo‘lib, tilimizda «Axborot texnologiyalari» deb yuritiladi.

IELTS (International English Language Testing System) – ingliz tilida ta‘lim olmoqchi bo‘lganlar uchun tilni bilish darajasini aniqlovchi xalqaro test sinovi.

Muhokama. Oliy ta‘lim tizimidagi lisoniy o‘zgarishlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, neologizmlarning kirib kelishi shunchaki so‘z almashinuvi emas, balki tizimli islohotlarning til darajasidagi in‘ikosidir. Tadqiqot natijalarida keltirilgan “*kredit-modul*”, “*HEMIS*”, “*tyutor*”, “*KPI*” kabi tushunchalar bugungi kunda ta‘limni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonining ajralmas qismiga aylandi.

N.A. Baskakov ta‘kidlaganidek, qoraqalpoq tilining leksik qatlami tarixan turli tashqi ta‘sirler (arab, fors, rus) hisobiga boyib kelgan. Biroq, zamonaviy neologizmlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular asosan ingliz tilidan olingan va xalqaro xarakterga ega. Agar o‘tgan asrlarda so‘zlar mahalliy tilning fonetik qonuniyatlariga moslashtirilgan bo‘lsa (masalan, “*volost*” – “*bolis*”), hozirgi axborot texnologiyalari davrida atamalar o‘zining asl shakli

va talaffuziga yaqin tarzda qabul qilinmoqda. Bu holat global ta'lim makoniga integratsiyalashuv jarayoni naqadar tez kechayotganidan dalolat beradi.

Xususan, "HEMIS" yoki "Zoom" kabi texnologik neologizmlar pandemiya davridagi zaruriyat tufayli tilimizga shiddat bilan kirdi va qisqa muddatda faol leksikaga aylandi. "Tyutor" va "Komplaens" kabi atamalar esa oliy ta'limning boshqaruv va pedagogik paradigmasi o'zgarayotganini ko'rsatadi. Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash joizki, ushbu yangi so'zlarning aksariyati qoraqalpoq va o'zbek tillarining o'z ichki imkoniyatlari (so'z yasash) hisobiga emas, balki tayyor tushuncha sifatida qabul qilinmoqda. Bu esa tilshunoslar oldiga ushbu atamalarning milliy tildagi muqobillarini yaratish yoki ularni ilmiy muomalaga qat'iy me'yorlashtirilgan holda kiritish vazifasini qo'yadi.

Shuningdek, natijalarda keltirilgan "KPI" va "Kredit-modul" tizimi talaba va o'qituvchi faoliyatini baholashning sifat jihatdan yangi bosqichini ifodalaydi. Bu atamalarning semantik maydoni juda keng bo'lib, ular nafaqat ta'limiy, balki iqtisodiy va menejerlik xususiyatlarini ham o'zida mujassam etgan.

Komplaens (inglizcha compliance – muvofiqlik) – kompaniyaning barcha qonunlar, normalar va ichki qoidalarga muvofiq ishlashini ta'minlovchi tizim. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida barcha tashkilotlarda «komplaens» shtati ochildi. KPI (inglizcha Key Performance Indicators – asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari) – tashkilot yoki shaxsning maqsadlarga erishishdagi muvaffaqiyatini o'lchaydigan tizim.

Xulosa. Hozirgi kunda ilm-fan va texnika rivoji bilan leksikamizga yangi atamalar ko'plab kirib kelmoqda. Biz faqat oliy ta'lim sohasida qo'llaniladigan so'zlarni ko'rib chiqdik. Bu so'zlar tilimizning lug'at boyligiga yangidan kirib kelayotgani sababli hali to'liq umumxalq miqyosida ommalashmagan bo'lib, asosan muayyan soha vakillari tomonidan qo'llanilmoqda. Demak, tashqi ta'sir orqali tilimiz yanada boyib va rivojlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Bir bolsaq-bir g'aliqiz, Birlessek-Watanbiz "O'zbekiston" baspasi Tashkent, 2024.B- 168 .
2. Berdimuratov E. Hozirgi qaraqalpaq tili, Leksikologiya „Bilim“ baspasi-1994, 5b,69
3. Баскаков Н.А. Состав лексики каракалпакского языка и структура слова «Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков» VI, лексика, М, 1952, стр 69.
4. Бердак, Таңдамалы шығармалары Нөкис- «Илим»-2018, Б-67,
5. Bekbergenov A. Qaraqalpaq tiliniń stilistikası, Nókis „Qaraqalpaqstan“ baspasi-1990 jil, 29-30.